Registered in Germany Europa Revue Journal
ISSN: 1862-6564 Vol. 6 No. 4 (2026) Published April 25, 2026

THE PLACE OF ISADJON SULTAN'S STORY "ECHO OF A DISTANT WAR" IN THE SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF YOUTH

Ruziboyev Bobir Mirzakulovich
Independent Researcher (PhD), Jizzakh State Pedagogical University.
boburroziboyev07@gmail.com

Annotation

This article analyzes the short story “The Echo of a Distant War” by the contemporary Uzbek writer Isajon Sulton and reveals its role in the spiritual and moral upbringing of youth. Based on concrete facts and textual analysis, the study examines the artistic and ideological content of the story, its system of images, the connection between the theme of war and the ideas of humanism and peacefulness, as well as the educational significance of the work in shaping children’s and young people’s compassion toward life, nature, and living beings. Through the image of the “lake watchman,” the author shows how the trauma of war affects the human soul and one’s attitude toward the surrounding world, while the protagonist’s anxiety for his own children reveals the need to protect the younger generation from spiritual wounds. The article also offers practical ways of using the story in the educational process.

Key words

Isajon Sulton, “The Echo of a Distant War”, spiritual and moral education, theme of war, artistic detail, humanism, ecological consciousness, education of youth.

ISAJON SULTONNING “OLISDAGI URUSHNING AKS-SADOSI” HIKOYASINING YOSHLAR MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDAGI O‘RNI

Ruziboyev Bobir Mirzakulovich
Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
boburroziboyev07@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adibi Isajon Sultonning “Olisdagi urushning aks-sadosi” hikoyasi tahlil qilinib, uning yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasidagi o‘rni ochib beriladi. Tadqiqotda hikoyaning badiiy-g‘oyaviy mazmuni,

timsollar tizimi, urush mavzusining insonparvarlik va tinchlikparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘unligi, bolalar va yoshlarda hayotga, tabiatga, jonzotlarga nisbatan mehr-shafqat tuyg‘usini shakllantirishdagi tarbiyaviy ahamiyati aniq faktlar va matn tahlili asosida yoritilgan. Muallif hikoyadagi “ko‘l qorovuli” obrazi orqali urush travmasining inson qalbiga, uning atrof-muhitga munosabatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini, shu bilan birga bosh qahramonning o‘z farzandlariga bo‘lgan tashvishi orqali kelajak avlodni ma‘naviy jarohatlardan asrash zaruratini ko‘rsatib beradi. Maqolada, shuningdek, hikoyadan ta‘lim-tarbiya jarayonida foydalanishning amaliy yo‘llari ham tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: Isajon Sulton, “Olisdagi urushning aks-sadosi”, ma‘naviy-axloqiy tarbiya, urush mavzusi, badiiy detal, insonparvarlik, ekologik ong, yoshlar tarbiyasi, zamonaviy o‘zbek nasri.

МЕСТО ИСТОРИИ ИСАДЖОНА СУЛТАНА «ЭХО ДАЛЕКОЙ ВОЙНЫ» В ДУХОВНОМ И НРАВСТВЕННОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Рузибоев Бобир Мирзакулович
Независимый исследователь (PhD) Джизакского государственного педагогического университета имени Абдуллы Кадыри
boburroziboyev07@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется рассказ современного узбекского писателя Исажона Султона «Олисдаги урушнинг акс-садоси» («Эхо далёкой войны») и раскрывается его роль в духовно-нравственном воспитании молодёжи. В исследовании на основе конкретных фактов и анализа текста освещены художественно-идейное содержание рассказа, система образов, взаимосвязь темы войны с идеями гуманизма и миролюбия, а также воспитательное значение произведения в формировании у детей и молодёжи чувства милосердия к жизни, природе и живым существам. Через образ «сторожа озера» автор показывает, как травма войны влияет на душу человека и его отношение к окружающему миру, а через тревогу главного героя за своих детей раскрывает необходимость оберегать подрастающее поколение от духовных травм. В статье также предложены практические пути использования рассказа в учебно-воспитательном процессе.

Ключевые слова: Исажон Султон, «Олисдаги урушнинг акс-садоси», духовно-нравственное воспитание, тема войны, художественная деталь, гуманизм, экологическое сознание, воспитание молодёжи.

KIRISH

Badiiy adabiyot inson qalbining koʻzgusi, uning maʻnaviy dunyosini boyituvchi, axloqiy tamoyillarini shakllantiruvchi kuchli vositalardan biridir. Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida yoshlarni har xil gʻoyaviy taʻsirlardan asrash, ularda insonparvarlik, mehr-oqibat, tabiatga va jonli mavjudotlarga nisbatan masʻuliyat tuygʻusini tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda milliy va jahon adabiyotining eng yaxshi namunalaridan foydalanish, ularni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib, taʻlim-tarbiya tizimiga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotining yetakchi vakillaridan biri Isajon Sulton ijodi psixologik teranligi, falsafiy-axloqiy muammolarni koʻtarishi bilan alohida ajralib turadi. Uning “Tuman” hikoyasi bilan bir vaqtda, 2018-yilda “Yoshlik” jurnalida chop etilgan “Olisdagi urushning aks-sadosi” hikoyasi kichik hajmiga qaramay, katta gʻoyaviy yuk koʻtargan asarlardan biridir [1; 2]. Hikoyada tinch, osoyishta tabiat manzarasi fonida urush illatlarining insonning botiniy dunyosiga qanday taʻsir koʻrsatishi, bu taʻsirning nafaqat urush ishtirokchisi, balki uni kuzatib turgan har qanday inson, xususan, kelajak avlod uchun ham xavfli boʻlishi mumkinligi nozik badiiy vositalar orqali koʻrsatib berilgan.

Maqolaning maqsadi – “Olisdagi urushning aks-sadosi” hikoyasining badiiy-gʻoyaviy xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning yoshlar maʻnaviy-axloqiy tarbiyasidagi oʻrnini aniqlash, shuningdek, hikoyadan taʻlim jarayonida foydalanishning amaliy yoʻllarini belgilashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hikoyaning badiiy-mazmuniy tuzilishi

Hikoya voqealari bahor kechasi, tog‘ etagidagi kichik ko‘l bo‘yida kechadi. Muallif dastlab bahorgi tabiatning jonlanishini – gullagan chaqirtikanlarni, ariqu ko‘lmaklardagi millionlab itbaliqlarni, oy nurida sayrayotgan baqalarni nihoyatda nafis tasvir vositalari

bilan ochib beradi. Ana shu tinim bilmas hayotiy jo‘shqinlik fonida hikoyaning bosh qahramonlaridan biri – do‘stlarning hazil aralash iltimosi bilan baqalarni “sukut” qildirishga kirishgan ko‘l qorovuli obrazi paydo bo‘ladi. Qorovul tiriklarni birma-bir tutib o‘ldiradi va bu qilmishini ilgari “Afg‘onistonda, urushda” bajargan ishlariga o‘xshatadi. Shu lahzadan e‘tiboran asar markaziga oddiy tabiat manzarasidan tubdan boshqacha – urushning inson ruhiyatiga qoldirgan asoratlari mavzusi ko‘chib o‘tadi.

Voqea rivojida diqqatga sazovor jihat shundaki, muallif qorovulning bu ishi tufayli butun ko‘l atrofidagi tirik jonzotlarning sasi tinib qolganini, hatto chirildoqlarning ham jim bo‘lib qolganini alohida ta‘kidlaydi. Bu – zo‘ravonlikning yagona qurboni bilan cheklanib qolmasligi, balki butun bir muhitga, jamiyatga soya solishining ramziy ifodasidir.

Urush travmasi va insoniy tuyg‘ularning so‘nishi muammosi

Hikoyadagi eng kuchli badiiy-psixologik nuqta – ko‘l qorovulining o‘z qilmishini oddiygina “urushda shunaqa qilardik“degan bir necha so‘z bilan izohlashidir. Aynan shu qisqa jumlada muallif urushning inson ongida qoldirgan dahshatli izini – hayotga, jonli mavjudotga nisbatan befarqlik va shafqatsizlikni odat tusiga aylantirib qo‘yishini mahorat bilan ochib beradi. Qorovul o‘z ishini pul evaziga, hech qanday hissiyotsiz, “ruhsiz ohangda” bajarayotgani tasvirlanadi – bu esa urushning inson qalbidagi mehr-shafqat mexanizmini izdan chiqarganini ko‘rsatadi.

Bosh qahramon-hikoyachi esa ushbu voqeadan qattiq ta‘sirlanadi, garchi o‘zi ham bolaligida ninachilarning qanotini yulgan, xivchin bilan mayda jonzotlarni urgan bo‘lsa-da, bu safar ta‘sirlanish darajasi butunlay boshqacha ekanini his qiladi. Bu – asardagi ichki nutq orqali berilgan muhim axloqiy-falsafiy xulosa: bolalik beg‘ubor shodmonligidan farqli o‘laroq, urush tajribasidan kelib chiqqan zo‘ravonlik ongli, hisob-kitobli va sovuqqonlik bilan amalga oshiriladi. Aynan shu farqni ko‘rsatish orqali muallif yoshlarni zo‘ravonlikning har qanday shakli – xoh o‘ylab qilingan, xoh beixtiyor bo‘lsin – oxir-oqibat insonning ma‘naviy olamiga putur yetkazishini anglashga chorlaydi.

Bola timsoli va kelajak avlod tashvishi

Hikoyaning yakuniy qismida bosh qahramonning o‘z farzandlarini tog‘-toshga, dala-dashtga yubormaslikka intilishi tasvirlanadi. U “biron noxush voqea ro‘y bersa-ya”, degan xavotir bilan yashaydi va “barq urgan hayot jo‘shqinliklari aro faqat yaxshiliklar ichida ulg‘ayishsin, mitti yuraklari nekbinliklar bilan to‘laqolsin”, degan ezgu istak bilan qissasini yakunlaydi. Bu – har bir ota-onaga, har bir tarbiyachiga xos bo‘lgan umuminsoniy tuyg‘: yosh avlodni jismoniy xavf-xatarlardangina emas, balki ma‘naviy-ruhiy zararli ta‘sirlardan ham asrash zarurati.

Ushbu badiiy g‘oya bugungi yoshlar tarbiyasi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega. Zero, zamonaviy axborot makonida yoshlar zo‘ravonlik sahnalari, shafqatsizlik namunalari bilan tez-tez to‘qnash kelishi mumkin. Hikoya orqali o‘quvchi – xoh o‘quvchi, xoh talaba – zo‘ravonlikka nisbatan tashqi kuzatuvchi emas, balki uning oqibatlarini chuqur his qiluvchi, unga qarshi turuvchi shaxs sifatida shakllanishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tabiat va zo‘ravonlik tazodi – poetik-falsafiy yechim

Isajon Sulton hikoyada tazod (kontrast) usulidan mahorat bilan foydalangan. Bahorgi tabiatning uyg‘onishi, hayotning yangilanishi, yulduzlarning “yangidan tug‘ilganday” tuyulishi bilan qorovulning sovuq, ruhsiz qiyofasi bir-biriga zid qo‘yilgan. Ana shu badiiy tazod orqali muallif shuni ta‘kidlaydi: tabiat va hayot o‘z-o‘zidan poklanish, yangilanish qonuniga bo‘ysunadi, biroq inson qalbidagi jarohatlar o‘z-o‘zidan tuzalmaydi, ularni faqat ongli ravishda – tarbiya, mehr-oqibat va insonparvarlik orqaligina davolash mumkin. Bu jihat hikoyaning ekologik-axloqiy pafosini ham kuchaytiradi: eng mayda jonzot – baqaning ham hayotga haqli ekanligi, uni sababsiz yo‘q qilish gunoh ekanligi asar zamirida yotgan asosiy g‘oyalardan biridir.

Hikoyaning yoshlar tarbiyasidagi amaliy ahamiyati

“Olisdagi urushning aks-sadosi” hikoyasi quyidagi tarbiyaviy yo‘nalishlarda samarali qo‘llanilishi mumkin:

1) Tinchlikparvarlik va insonparvarlik g‘oyalarini singdirish – hikoya orqali yoshlarga urushning nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy-ruhiy oqibatlari haqida tushuncha berish;

2) Ekologik ong va jonzotlarga mehr-shafqat tuyg‘usini shakllantirish – tabiat va uning har bir a‘zosiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatish;

3) Zo‘ravonlikka nisbatan tanqidiy-axloqiy munosabat tarbiyalash – shaxsning har qanday shafqatsizlikka ichki qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish;

4) Oilaviy tarbiya va avlodlar bog‘liqligi masalasida mulohaza yuritish – ota-onalarning farzandlari oldidagi ma‘naviy mas‘uliyatini anglash.

Adabiyot darslarida, tarbiyaviy soatlarda ushbu hikoya asosida bahs-munozaralar tashkil etish, “Zo‘ravonlik nima uchun odat tusiga aylanadi?”, “Ota-onaning farzand oldidagi ma‘naviy mas‘uliyati nimada?” kabi mavzularda insholar yozdirish, shuningdek, hikoyani zamonaviy urush va tinchlik mavzusidagi boshqa asarlar bilan qiyosiy o‘rganish yoshlarda mustaqil, tanqidiy va insonparvar dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Isajon Sultonning “Olisdagi urushning aks-sadosi” hikoyasi kichik hajmiga qaramay, chuqur falsafiy-axloqiy mazmunga ega asardir. Unda urush mavzusi jangovar epizodlar orqali emas, balki uning insoniyat qalbida qoldirgan uzoq muddatli asoratlari orqali ochib berilgan. Hikoyadagi ko‘l qorovuli obrazi – zo‘ravonlikning odat tusiga kirib qolishi, bosh qahramonning ichki kechinmalari va farzandlari haqidagi tashvishi esa – kelajak avlodni ma‘naviy jarohatlardan asrash zarurati g‘oyasini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Shu bois ushbu hikoyani yoshlar ma‘naviy-axloqiy tarbiyasida, xususan, tinchlikparvarlik, insonparvarlik va ekologik ongni shakllantirishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya ishlarida faol qo‘llash nafaqat maqsadga muvofiq, balki zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sulton I. Olisdagi urushning aks-sadosi (hikoya) // “Yoshlik” jurnali. 2018. 8-son.

2. Davronova Sh. Kontrasticheskoye opisaniye metoda v literature (na primere rasskaza Isadzhana Sultana “Olisdagi urushning aks-sadosi”) // Markaziy ilmiy nashrlar markazi (buxdu.uz). 2022. T. 9. №9.

3. G‘ofurov I. So‘z san‘ati saboqlari. Toshkent: Sharq, 2005. 320 b.

4. Normatov U. Ijod sehri. Toshkent: Sharq, 2007. 248 b.

5. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. Toshkent: Yozuvchi, 2001. 216 b.

6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. 288 b.

7. Qo‘chqorova M. Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam va boshqa ijodkorlar nasrida neomifologik unsurlar // Oyina.uz adabiy portali, 2022.

8. Yo‘ldoshev Q., Yusupova D. Zamonaviy o‘zbek nasrida psixologizm masalalari // O‘zMU xabarlari. 2019. №3. B. 112–116.

9. Ushinskiy K.D. Inson tarbiyasining predmeti sifatida pedagogik antropologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 384 b.

10. Vыgotskiy L.S. Psixologiya iskusstva. Moskva: Iskusstvo, 1986. 573 s.

11. Lixachyov D.S. Zemlya rodnaya. Moskva: Prosveshcheniye, 1983. 256 s.

12. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. Moskva: Iskusstvo, 1979. 424 s.

13. Remark E.M. Zapadnыy frontda o‘zgarish yo‘q / rus tilidan tarjima. Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1980. 256 b.

14. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. 176 b.